

PRAGMALINGUISTIC FEATURES OF THE PLAY PADARKUSH

Laylo Khusanboy qizi Isaqova

Master's Student, 1st Year

Turon University, Andijan

ORCID iD: 0009-0007-1321-9545

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18333229>

Abstract: This article investigates the interplay of speech acts, pragmatic units within communicative interaction, and pragmalinguistic devices in Mahmudkhoja Behbudi's play Padarkush. The study analyzes the speech behavior of the characters, the pragmatic strategies employed in dialogues, and the communicative functions of linguistic units from a pragmalinguistic perspective. Particular attention is given to the socio-cultural context reflected in Padarkush and its role in shaping the characters' discourse. The linguistic resources that convey the socio-political environment of the time, along with the author's spiritual-educational ideas and artistic mastery, are interpreted through speech processes. The dialogues among characters as well as the monologues addressed to the audience are examined with regard to their pragmalinguistic features. Their contribution to revealing character traits more vividly and to driving the development of the plot is also emphasized. Ultimately, the article demonstrates that Padarkush is not only the first specimen of Uzbek dramaturgy but also a significant subject of inquiry from the standpoint of pragmalinguistics. The research findings contribute to a deeper understanding of the work and enhance its artistic and aesthetic value. They also serve to enrich the study of pragmalinguistic issues in Uzbek literature.

Keywords: pragmalinguistics, speech act, communicative function, dialogue, monologue, socio-cultural context, Padarkush, Mahmudkhoja Behbudi.

"PADARKUSH" DRAMASINING PRAGMALINGVISTIK XUSUSIYATI

Isaqova Laylo Xusanboy qizi

Turon universiteti 1-kurs magistranti

Andijon

Orcid iD: 0009-0007-1321-9545

Annotatsiya: Mazkur maqola Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" asarida nutqiy aktlar muloqot jarayonidagi pragmatik birliklar va pragmalingvistik vositalarning bir-biriga uyg'unlashuvi ko'rib chiqilgan. Asarda qahramonlarning nutqiy xatti-harakatlari, dialoglarda qo'llanilgan pragmatik vositalar hamda til birliklarining kommunikativ vazifalari pragmalingvistik nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Shuningdek, "Padarkush" dagi ijtimoiy-madaniy kontekst va uning qahramonlar nutqini shakllantirishdagi roli ko'rib chiqiladi. "Padarkush" asarining yaratilgan davri ijtimoiy-siyosiy muhitini aks ettiruvchi til vositalari, muallifning ma'naviy-ma'rifiy g'oyalari va badiiy mahorati nutqiy jarayonlar orqali izohlanadi. Maqolada obrazlar o'rtasidagi dialoglar, qahramonlarning tinglovchiga qarata aytgan monoglari pragmalingvistik nuqtayi nazardan o'rganiladi. Mazkur dialog va monoglarning xarakter jihatidan yorqinroq ochib berishga va asar voqealari rivojiga ta'siri yoritiladi. "Padarkush" dramasi nafaqat dramaturgiyamiz ilk namunasi, balki pragmalingvistika nuqtayi nazaridan ham dolzarb tadqiqot obyekti ekanini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari asarni chuqurroq anglashga, uning badiiy-estetik qiymatini yanada oshirishga yordam beradi. O'zbek adabiyotidagi pragmalingvistika masalarini boyitishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: pragmalingsvistika, nutqiy akt, kommunikativ vazifa, dialog, monolog, ijtimoiy-madaniy kontekst, "Padarkush", Mahmudxo'ja Behbudiy.

Mahmudxo'ja Behbudiy ijodida o'zbek milliy dramaturgiyasining ilk namunasi hisoblangan "Padarkush" dramasi alohida o'rin tutadi. Ushbu asarda nafaqat ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy g'oyalar ifodalanadi, balki qahramonlarning nutqiy xatti-harakatlari, dialog va monologlarida til vositalarining kommunikativ hamda pragmatik xususiyatlari ham yorqin namoyon bo'ladi. Shu bois, asarni pragmalingsvistik nuqtayi nazardan tahlil etish uning badiiy qimmatini, shuningdek, o'z davri ijtimoiy-madaniy muhitini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. Buni asar nomidan ham yaqqol bilib olishimiz mumkin. *"Padarkush" yohud o'qimagan bolaning holi* bu nom orqali adib o'qimaslikning, ilm olmaslikning naqadar ayanchli holarlarga olib kelishini aytmog'chi. Bir bola misolida butun bir millatni aytyapti. Asar voqealarining aynan juma – musulmonlar uchun muborak bir kunda bo'lib o'tishi ham bir pragmalingsvistik xususiyatni ochib beradi, ya'ni bizning nafaqat millatdan, balki dinimizdan ham uzoqlashib borayotganimizni bildirib o'tmoqda.

Toshmurod: Xayr, xayr, hov ko'p gapura(r)sizda (chiqib ketar. Domullo boy va Toshmurodga badbinona boqib, boshini solar).

Toshmurodning mana shu gapida, otasiga bo'lgan muomalasida millatning yoshlari holati yorqin aks etgan. Adib mana shu gaplari bilan jamiyatga asl odamlarni, yoshlarni ko'rsatib beradi.

Aslida nima uchun bunday gapirishga majbur bo'lgan ekan? Buning uchun ular yashagan davrga nazar tashlashimiz kerak.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yil 20-yanvarda Samarqandda tug'ilgan. 1919-yil 25-martda vafot etgan. Yashagan yillari ayni ruslar istilosi paytiga to'g'ri keladi. Bu paytda esa xalqimiz ilm yo'lidan, milliy mafkuramizdan uzoqlashtiriladi. Buni yaxshi tushingan xalqimiz vakillari esa xalqni bu tanazzuldan qutqarish uchun bir harakatga jamlanishadi. Shu tariqa "Jadidlar", ya'ni "Yangilar" harakatiga asos solindi. Ular xalqni ilm orqaligina mustaqillikka olib chiqmog'chi bo'lishadi. Buning uchun esa, avvalo, millatning qalb ko'zini ochishlari kerak edi. Bu esa badiiy adabiyot bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilishi kerak. Xalqning ko'p qismi esa kitob o'qimaydi, shuning uchun sahna asarlari kerak edi. Birinchilardan bo'lib Mahmudxo'ja Behbudiy yozdi. Buning natijasida sahna asarlarining ko'p gaplari tag ma'nolarga ega. Bu maqola aynan shunday gaplarning pragmalingsvistik xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

Yana bir pragmalingsvistik xususiyat bo'ying nutqida bilinadi.

BOY. Mani xayoling'a dunyoning sababi, izzati — boylik. Oxiratga bo'lsa, Xudoning qilgan taqdiri bo'lur. Chunonchi, biz ko'ramizki, odamlar boyni mullodan ziyoda izzat qiladurlar. Xususan, mana, banklar ko'paydi. Katta boylar chilen bo'lub, har kim chilenlarni izzat qilur, hatto, ishi tushaturg'onlar chilen molini qimmat olur, azbaski, chilen iltifotiga olmagan odamlarga banklar pul bermaydurki, so'ngra muomiladorlar sinib, mayda-mayda bo'lur, bidingizmi?

DOMULLA. Bu so'zlaringiz hozirgi zamonaga ma'qul, lekin chilen va boylarni izzatlari vaqtincha va xalqni ko'zi ochilgunchadir. Holbuki, alarni ishi tushganlar izzat qilur, mulloni bo'lsa, barcha xalq izzat qilur, ya'ni mulloni ilmi izzat qilinadur.

Bu gaplar orqali adib millat boylariga pul, boylik vaqtincha ekanligini, bular bir kun yo'q bo'lishini, ilm-ma'rifat esa doimo insonni yuksakka chiqarishini aytmoqda. Boylar ham o'z

mablag'larini millat farzandlarini o'qishi uchun sarf qilishi kerakligini ta'kidlamoqda. Bunday asarlar natijasida 1922-yilda yana bir yangi fikrlovchi Fitrat va uning do'sti, maslakdoshi Munzim buxorolik 70 nafar yosh turkistonliklarni Germaniyaga o'qishga yuboradi.

DOMULLA. Siz ilgari zamonda bir navi ila boy bo'lubsiz, ammo endi boy bo'lmoq nari tursun, faqat ro'zg'or o'tkarmoq uchun (ham) ilm kerak. Ko'ramizki, yigirma-o'ttiz yildan beri barcha savdo ishlari armani, yahudiy va boshqa ajnabiylar qo'lig'a o'tdi, muni sababi bizlarning o'qumag'onimizdur. O'qumagan boyvachchalarni ko'ramizki, ota molini barbod etar va oxiri xor va zor bo'lur, binobarin, o'g'lungizni o'qutmoqni sizga taklif qilurman.

Domla bu nutqi bilan savodi yo'q odam hech nimaga yaramasligini uqtirmoqda. Boyning bolaga to'g'ri tarbiya berishi haqida gapirib, Toshmurod orqali barcha millat farzandlarini nazarda tutmoqda. Toshmurodning bir nimani o'ylab, fikr qilishga yaramasligi orqali boylarning ba'zi qo'shtirnoq ichidagi farzandlari qattiq tanqidga olingan.

Yuragimizda chuqur iz qoldirgan "Padarkush" dramasing pragmlingvistik tahlili shuni ko'rsatadiki, asarda til vositalari nafaqat badiiy tasvir yaratish, balki personajlarning ruhiy holati, ijtimoiy mavqei va kommunikativ maqsadini ifodalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif nutqning turli pragmatik darajalaridan — kinoya, istehzo, murojaat, undov, iltimos, buyruq, baholovchi ifodalar kabi vositalardan — mohirona foydalanib, o'quvchini nafaqat voqealarga, balki ularning ichki mazmuniga ham yetaklaydi. Asardagi har bir dialog, nutq akti va so'z tanlovi muayyan maqsadga xizmat qiladi: ular orqali muallif axloqiy, tarbiyaviy va ijtimoiy g'oyalarini ta'sirchan tarzda yetkazadi. Ushbu tadqiqot natijalari o'zbek adabiyotida pragmlingvistika yondashuvining samarali qo'llanishini ko'rsatadi hamda "Padarkush" asarining pragmlingvistik jihatdan tahlili orqali milliy dramatik merosimizni yangi ilmiy nuqtai nazardan o'rganishga hissa qo'shadi. Shuningdek, bunday tahlillar kelgusida o'zbek dramalarida nutq madaniyati, kommunikativ strategiyalar va til vositalarining badiiy funksiyalarini chuqurroq o'rganish uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Habibullayeva D. O'zbek badiiy matnining pragmlingvistik tahlili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
2. Jo'rayev, S. O'zbek tilida pragmlingvistik tahlil masalalari. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Mahmudxo'ja Behbudiy. Padarkush (Dramatik asar). – Toshkent: O'zbekiston Davlat nashriyoti, 1922.
4. www.mutolaa.com.uz